

SADR ZIYO – MUNAQQID.

Sattorova Nargiza Abduraupovna
BuxDpi magistranti
nargizasattorova1997@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro adabiy muhiti vakili Sadr Ziyο xususidadir. Uning hayoti, faoliyati hamda asarlar to'g'risida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Sadr Ziyο, Musahhiba Shukurova, Muhammad Shakuriy, tazkira, Mehtari Orif madrasasi.

Ключевые слова: Садр Зия, Мусаххиба Шукурова, Мухаммад Шакурий, тазкира, медресе Мехтари Ариф.

Keywords: Sadr Ziya, Musahhiba Shukurova, Muhammad Shakuriy, tazkira, Mehtari Arif madrasa.

Sadri Ziyο (taxallusi; asl ismsharifi Mirza Muham mal Sharif Sadr ibn Abdishukur) (1867—Buxoro—1932) — shoir, olim. Buxoro madrasalarida tahsil ko'rgan. Arab va fors tili grammatikasi, mumtoz adabiyot, tarix fanlarini, xattotlik san'atini puxta egallagan. "Tazkor ulash'or" tazkirasini tuzgan. Asar nazmda yozilgan. Unda Ahmad Donish, Shamsuddin Mahmud Shoqin kabi shoir va olimlarning hayoti, ijodiga keng o'rin berilgan. Asar O'rta Osiyo, xususan, 19-asr 2yarmi — 20-asr boshlaridagi Buxoro adabiy muhitini o'rganishda muhim manba hisoblangan. "Tazkirat ushshuari mutaqaddimin va salatini maosirin va buzurgoni mutavarrin" ("O'tmish va hozirgi zamon shoirlari, sultonlari tazkirasini"), "Shuari mutaxxirin va fuzaloi maosirin" ("So'nggi davr shoirlari va zamondosh fozillar"), "Tazkirat ulhukamo" ("Hokimlar tazkirasini"), "Navodiri ziyoiya" ("Ziyο nodirliklari") kabi adabiyot, tarix, geografiyaga oid asarlar muallifi. Ayrim manbalarda Sharifjon Maxdum qalamiga mansub turli mavzulardagi asarlar soni 75 tani tashkil etadi deyilgan. Bugungi kunda O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar xazinasida Sadri Ziyoning o'z dastxati bilan ko'chirilib, 9 ta jildga jamlangan ko'plab risolalari, tazkiralari va tarixiy asarlari saqlanmoqda. Bu asarlarning aksariyati L. M. Yepifanova tomonidan qisqacha tavsiflangan. Asarlari XIX asrning ikkinchi yarmi — XX asr boshlariga oid Buxoro amirligi tarixi, ilmiy, adabiy muhitini o'rganishda qimmatli manbalar sirasiga kiradi. Sadr Ziyο davlat ishlari bilan band bo'lishiga qaramay, sermahsul ijod qilib, bir qancha asarlar yaratgan. Bugungi kunda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar xazinasida Sadr Ziyoning 9 ta jildga jamlangan 70 dan ortiq risolalari, tazkiralari va tarixiy asarlari saqlanmoqda.

Bu kitoblarning tadqiqot doirasi keng bo'lib, Sharqning musulmon mamlakatlari geografiyasi, Buxoro amirligining XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridagi tarixini o'rganishda muhimmanbalar bo'lib hisoblanadi.

Sadr Ziyoning “Mashhur shaharlar va ularning atrofidagi joy nomlari va ularning alifbo tartibi haqida risola”, “Baland tog'larning ajoyibotlari va vayrona tepaliklarning qiziq jihatlari bayoni”, “Jug'rofiya va yer yuzidagi mamlakatlar aholisi to'g'risida majmua”, “Yetti iqlim bayoni” kabi asarlarida XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Sharq mamlakatlari tabiati, boyliklari va shaharlari haqida ma'lumotlar berilgan bo'lsa, “Movarounnahrda mevalarning xususiyatlari haqida so'z” asarida Turkistonda yetishtiriladigan mahalliy mevalarning turkiy, arab va fors tilidagi nomlari, xususiyatlari, iste'mol qilish uchun foydali jihatlari haqida so'z yuritiladi.

Sadr Ziy Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Fariduddin Attor, Abduxoliq G'ijduvoni, Imom Buxoriy, Abdulvohid Sadri Sarir Balxiyning hayoti va faoliyatini yoritib beruvchi “Tarjimayi ahvoli imom Forobiy”, “Tarjimayi ahvoli shayx-ur-ra'is Abu Ali ibn Sino”, “Tarjimayi holi Attor”, “Tarjimayi holi Xoja Abduxoliq G'ijduvoni”, “Tarjimayi holi imom Hofiz al-din al-kabir al-Buxoriy”, “Mujmali tarjimayi holi manoqibi Og'oyi Buzurg”, “Tarjimayi ahvoli qozi Abdulvohid sadri Sariri Balxiy” kabi asarlar muallifi hamdir.

Sadr Ziy qalamiga mansub “Buxoroyi Sharif ichkarisidagi madrasalar atalishi to'g'risida” hamda “Buxoroyi Sharif ichkarisidagi masjidlar atalishi to'g'risida” nomli asarlari Buxoro shahri tarixini o'rganishda nihoyatda muhim manba hisoblanadi. Bu asarlar orqali biz shaharning ichki tuzilmasi, diniy-ma'rifiy hayoti, me'moriy obidalari va ularning tarixiy ahamiyati haqida boy ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Ayniqsa, bu yozuvlar Buxorodagi madrasa va masjidlar soni, joylashuvi, o'lchami va tarixiy manbalardagi o'rni haqida aniq faktlar asosida yozilgan bo'lib, o'z davri uchun beqiyos ilmiy qimmatga ega.

Mazkur asarlarda Buxoro shahrida joylashgan 204 ta madrasa va 223 ta masjid haqida so'z yuritiladi. Har bir madrasa va masjid alohida tilga olinadi, ular haqida qisqacha izohlar, qurilgan yili, bunyodkor hukmdor yoki homiylar ismi, hamda ayrim me'moriy tafsilotlar ko'rsatilgan. Bu jihatlar tarixiy shaharshunoslik va madaniy merosni o'rganishda ayni muddao hisoblanadi. Masalan, asarda keltirilishicha, shahardagi eng yirik madrasa bu — Ko'kaldosh madrasasi bo'lib, undagi hujralar soni 147 taga yetgan. Bu esa o'sha davrdagi ta'lim muassasalarining qamrovi va imkoniyatlari qanday bo'lganini ko'rsatadi. Aksincha, eng kichik madrasa deb Mehtari Orif madrasasi tilga olinadi, u atigi 2 ta hujraga ega bo'lgan. Bu tafovut Buxorodagi madrasalar orasidagi ijtimoiy va iqtisodiy farqni ham ifodalaydi.

Yana bir diqqatga sazovor holat shuki, hujralar soni yigirmadan ortiq bo'lgan madrasalar soni 60 taga yetgani, ellikdan ortiq hujrasi bo'lgan yirik madrasalar esa 20

tani tashkil qilgani qayd etilgan. Bu raqamlar orqali biz Buxoro ilmiy hayotining naqadar keng ko'lamli va rivojlangan bo'lganini anglashimiz mumkin.

Asar izohlarida har bir madrasa va masjidning qaysi hukmdor davrida, kim tomonidan va qaysi yilda barpo etilgani aniq ko'rsatilgan bo'lib, bu ma'lumotlar tarixiy tafsilotlarni tiklashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bu yozuvlarda ayrim obidalar o'zining o'rni, diniy-ma'rifiy faoliyati va shahardagi nufuziga qarab baholangan.

Sadr Ziyoning ushbu asarlari Buxoro shahrining diniy-ma'rifiy infratuzilmasini, ilmiy markaz sifatidagi o'rnini va islom sivilizatsiyasidagi ahamiyatini o'rganishda noyob tarixiy manbadir. Ular orqali biz nafaqat qadimiy bino va obidalar haqida, balki o'sha davrdagi ijtimoiy-ma'naviy hayotning qanday kechganini ham chuqur anglaymiz.

Sadr Ziyo o'z zamonasining mohir xattoti ham bo'lgan. U zamondoshlaridan Inoyatullo Shayxning "Oxund Shayx bar tahzib", Najmiddin Umar ibn Ali Qazviniyning "Xoniya", Kamoliddin Xo'jandiyning "Devoni Shayx Kamoli Xo'jandiy", Mir Muhammad Siddiq Hashmatning "Nomayi Xusravon" nomli asarlarni nastaliq xatida ko'chirib bergan. Shuningdek, xattotlik san'ati bo'yicha Mirzo Azim, Abdurahim Peshkuhiy, Abdulloh Mirzo Hisoriy, Mirzo Abdurahmon, Mirzo Abdulvohid, Mirzo Abdulqayum, Mirzo Qori Olimxon, Mirzo Qobil, Mirzo Murod, Muhammad Amin Qori, Abdulmo'min, Qori Nazrulloh o'roq, Qozi Hoji Ne'matulloh, Mirzo Safar, Mir Yahyo qorovulbegi kabilarga ustozlik qilgan.

Sadr Ziyo nafaqat o'z davrining yetuk adibi, ma'rifatparvari va adabiy muhiti vakili sifatida tanilgan, balki uning yana bir muhim jihati — kitobsevarligi va kitob yig'uvchilik faoliyati bilan ham ajralib turadi. U ilm-ma'rifatga cheksiz muhabbat qo'ygan, kitobni inson tafakkurining asosiy quroli deb bilgan ziyolilardan edi. Aynan shuning uchun ham u Buxoroda shaxsiy kutubxona tashkil etgan va umrining asosiy qismini ilmiy manbalarni to'plash, o'rganish va saqlashga bag'ishlagan.

XX asr boshlarida Buxoro shahrida uchta yirik shaxsiy kutubxona mavjud bo'lib, ular orasida Sharifjon Sadr Ziyo kutubxonasi alohida ahamiyatga ega edi. Bu uch kutubxona — Burhoniddin Sadr qozikalon kutubxonasi, Siddiqxon Hashmat kutubxonasi va Sadr Ziyo kutubxonasi — o'z davrining ilmiy-ma'rifiy markazlari sifatida faoliyat yuritgan. Ular faqat kitob saqlanadigan joy emas, balki ma'rifat ahli yig'iladigan, munozaralar yuritiladigan, bilim almashiladigan maskanlar bo'lgan.

Sadr Ziyoning kutubxonasi o'zining nodir qo'lyozmalari, ilmiy asarlari va tarixiy manbalari bilan ajralib turgan. Bugungi kunda uning kutubxonasidan qolgan meros Turkiston tarixini, adabiyoti, madaniyati vailm-fanini o'rganishda nihoyatda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Kutubxonadagi asarlar orasida islom ilmlariga, falsafa, tarix, tilshunoslik va adabiyotga oid ko'plab noyob manbalar bor edi. Bu

kitoblar orqali Sadr Ziyoning o'z davrida qanday ilmiy salohiyatga ega bo'lgani, ilmga bo'lgan chuqur hurmati va mas'uliyati yaqqol namoyon bo'ladi.

Afsuski, sovet hokimiyati davrida bu qimmatli kutubxona xavf ostida qolgan. Bir necha marta Sadr Ziyo kutubxonasi davlat mulkiga aylantirilmog'chi bo'lib, bu yo'nalishda harakatlar bo'lgan. Biroq har gal bu harakatlar Sadr Ziyoning qat'iy e'tiroziga uchragan. U ilmiy merosni o'z hayotining bir bo'lagi, milliy qadriyat deb bilgan va bu merosni himoya qilish uchun hatto tahdidlar oldida ham bo'yin egmagan.

Uning so'nggi yillari, afsuski, og'ir kechdi. 1924-yilda u sovet hokimiyatiga qarshi targ'ibot olib borganlikda ayblanib, fevral oyida hibsga olingan va 35 kun davomida qamoqda saqlangan. Keyinchalik, 1931–1932-yillarda aholidan tilla va qimmatbaho buyumlarni majburan tortib olish jarayonida Sadr Ziyoning mulkini yashirgani haqidagi ayblov bilan yana hibsga olinadi. Bu safar u qamoqxonada tif kasaliga chalinib, og'ir darddan so'ng vafot etgan. Uning o'limi Buxoroning ma'rifatli ziyolilari orasida chuqur iz qoldirdi.

U vafot etgach, hukumat tomonidan kutubxonasi musodara qilinadi. Uning 350 dan ortiq nodir kitobi Buxoro Xalq Sovet Respublikasi kutubxonasiga topshiriladi. 1936-yilda esa Sadr Ziyoning qolgan barcha kitoblari Toshkentga olib ketilib, hozirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. Bu qo'lyozmalar orasida ilmiy, diniy, adabiy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan asarlar bugun ham tadqiqotchilar uchun bebaho manba hisoblanadi.

Sadr Ziyo faqat ilm ahli emas, balki mehribon turmush o'rtoq, g'amxo'r ota bo'lgan. U Ibodulla Maxdumning qizi Musahhiba Shukurova bilan oila qurgan. Afsuski, ularning 1889-yilda tug'ilgan qizi hali 3 yoshga to'lmasdan vabo kasalidan vafot etadi.

Ammo keyinchalik dunyoga kelgan Muhammad Shakuriy (1925–2012) ismli o'g'li otasining izidan borib, Tojikiston ilm-fani rivojiga katta hissa qo'shgan taniqli adabiyotshunos va tilshunos olim bo'ldi. U ham otasiga o'xshab ilmga sadoqatli, elga xizmat qiluvchi ziyoli bo'lib yetishdi.

Sadr Ziyo nafaqat Buxoroning, balki butun Turkistonning madaniy hayotida muhim o'rin egallagan siymolardan biridir. Uning ilmga, kitobga, milliy merosga bo'lgan muhabbati, mustabid siyosatga qarshi ko'rsatgan jasorati va hayotini ma'rifat yo'liga bag'ishlaganligi biz uchun ibrat maktabidir. Bugun ham uning nomi bilan bog'liq kutubxona boyligi, ilmiy merosi va ma'naviy jasorati xalqimiz xotirasida munosib o'rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Axmatov A. Buxoro adabiy harakatchiligi haqida ayrim mulohazalar (XX asr boshlari). "Uchinchi renessans: ilm-fan va ta'lim taraqqiyoti istiqbollari". Ilmiy maqolalar to'plami. Uzbekistan: www.oriens.uz. 2021. –B. 367-370.

2. Axmatov A. Buxoro adabiy muhiti tarixi (XX asr) Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro, 2022. –B.32.
3. Ulugmurod, A. S. Abdurauf fitrat is one of the earliest researchers of Uzbek folklore. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year: 2020, Volume: 10, Issue: 6. First page:(669) Last page:(673). Online ISSN, 2249-7137.
4. Амонов, У. С. (2022). JADIDCHILIK HARAKATI VA «BUXOROYI SHARIF» RO 'ZNOMASI: Amonov Ulug 'murod Sultonovich, BuxDUPI dotsenti, filologiya fanlari bo 'yicha falsafa doktori. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, 5, 62-67.
5. www.google.com
6. www.ziyonet.net.